

ISLOMDAGI TINCHLIK G'YOYALARI

ИДЕИ МИРА В ИСЛАМЕ

IDEAS OF PEACE IN ISLAM

Malikjon Mamamadiyorov Anvarovich

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Samarqand filiali AKT-23-02 guruh talabasi

e-mail:mamadiyorovmalik05@gmail.com

Ilmiy rahbar: Samatov Xurshid O'lmasjonovich.

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada Islomda tinchlik va saodatning bir qismi, insonlarning ruhini va jismini tozalash va o'tkazish bilan bog'liq. Islomda tinchlik, qalb va fikrning tozaligi, boshqa insonlarga iqtiram ko'rsatish, zulm va zulumatga qarshi turish, yaxshi niyat bilan harakat qilish, sabr va shukrni o'rganish kabi amallarni o'z ichiga olgan.

KALIT SO'ZLAR: Islom, Din, Xadis.



Bugun jahon hamjamiyati, xususan, musulmon olamida murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar kechmoqda. Insoniyat muayyan siyosiy doiralar tomonidan o'z ta'sir doiralarini kengaytirish maqsadida, amalga oshirayotgan g'oyaviy kurashlar va mafkuraviy tahdidlar avj olgan bir vaziyatda yashamoqda. Qator davlatlar, xususan, ko'plab musulmonlar istiqomat qiluvchi yurtlar siyosiy tanglik, ijtimoiy va iqtisodiy beqarorlik va qurolli nizolarni boshidan kechirmoqdalar. Mazkur mamlakatlarda odamlar og'ir iqtisodiy muammolar girdobida, nochorlik, oziq-ovqat tanqisligi, ochiqdan-ochiq zo'ravonliklar va xavfsizlikning yo'qligi sharoitida kun kechirmoqda.¹ Oqibatda bunday hududlardan qochqinlar hajmi ortib, keng miqyosda gumanitar tangliklar yuzaga kelmoqda. **Ota bobolarimizni qo'llarini duoga ochishganda; "Ilohim jannatmakon yurtimiz tinch bo'lsin. Yurtimizga ko'z tegmasin"- deb duo qilishadi. Ushbu duo zamirida Alloh taoloning muborak kalomidagi Ibrohim (a.s.) duolari esga tushadi.** U zot yashab istiqomat qilgan yurtlari Makka haqiga: "Ey Robbim, bu (Makka)ni tinchlik shahri qilgin va

¹ rava.uz/stoty/Islom_Din_Tinchlik_Dini

uning aholisidan Allohga va oxirat kuniga ishonuvchilarga (turli) mevalardan rizq qilib bergen!” deb-duo qildilar (Baqara, 126).² Shu duo necha minglab yillarki, insoniyat tilida o'xtamaydi. Haqiqatan, insonga ko'pgina ne'matlarni berilgan bo'lsayu-u, tinchlik ne'mati bo'lmasa, boshqa ne'matlarning lazzati tatimaydi. Tinchlik so'zi arab tilida “salami”, “islom” ma'nolarini o'z ichiga oladi. Sakkizta jannat bo'lsa, birining nomi “Darus-salam”, yana bir ma'nosi “amn”. Alloh taolo Qur'oni karimda marhamat qiladi:

“Albatta taqvoli zotlar (u kunda) osoyishta joyda”, “Ular u joyda xotirjam bo'lgan hollarida har turli mevani chorlaydilar” (Duxon, 51 – 55). Ushbu oyatlar mazmunida ham jannatning jannatligi tinch va xotirjamligida ekanı ma'lum bo'ladi. Keksalarimizni yana “Jannatmonand yurtiimzga ko'z tegmasin”, deb duo qilishadi. Yurtning jannatga qiyos qilinishi uning tinchligida va shu zaminda yashayotgan kishilarning osoyishta xayot kechirayotganlari bilan bog'liq. Demak, tinchlik xukm surayotgan diyorni jannatga qiyos qilsa arziydi. Hadisi sharifda: “Kishi ertalab uyqudan uyg'onib tursa, uning oilasi tinch, tani sog', uyida yegulik ozuqasi barqaror bo'lsa, ne'matlarning barchasiga muyassar bo'libdi”, deb marhamat qilinadi. Bunga shukr qilish kerak. Ammo ne'matlarning osoyishtaligi, barqarorligi, bardavomligiga rahna solishga urinayotgan, jamiyatning taraqqiyotiga to'siq bo'layotgan, tinch aholiga buzg'unchilik ta'sirini o'tkazuvchi kuchlardan saqlanish ham shukronalikning asosiy tamoyilidir. Alloh taolo: “Ezgulik va taqvo (yo'li)da hamkorlik qilingiz, gunoh va adovat (yo'li)da hamkorlik qilmangiz!” (Moida, 2) deb, dinning mazmun-mohiyatida faqat yaxshilik qilishga chaqirilganini ta'kidlamoqda. Zero, Qur'oni karimning bir necha o'rinalarda odamlar ichida buzg'unchilik, ig'vo, fitna, noshukurlik holatlarini keltiruvchi salbiy harakatlardan qaytarilgan. Ayni paytda, buzg'unchi g'oyalarni tarqatuvchi toifalarga nisbatan murosasizlik har bir musulmonning shiori bo'lishi kerak. Hozirda din nomidan gapirayotgan, uni maqsadlari uchun “bayroq” qilib olganlar turli ob'ektlarga, tinch aholiga karshi kuch ishlatmoqdalar. Gunohsiz kishilar terrorning qurbaniga aylanmoqda. Urushlar sababidan mehr-oqibat, insoniylik unutiladi, ezgu amallar, ulug' maqsadlar sarobga aylanadi. Yer yuzi tor va ziq ko'rindi. Alloh taolo bandalarini o'zaro ittifoqlikda, ahillikda, tinchlik-omonlikda yashashga da'vat etib: “Agar mo'minlardan ikki toifa o'zaro urushib qolsalar, darhol ular o'rtasini isloh etingiz!” (Hujurot, 9) degan.

² rava.uz/stoty/Islom_Din_Tinchlik_Dini



Unutmaslik kerakki, dunyoning barcha hududidagi terroristik harakatlar tufayli gunohsiz odamlar majruh bo'lgan, bevaqt hayotdan ko'z yumgan. Ma'lumotlarga qaraganda notinchlik va urush sababidan oxirgi besh ming yilda uch milliarddan ziyod odamning yostig'i qurigan. Xolbuki, insonlar hayotiga zomin bo'lish barcha dinlar qatori Islom dinida ham gunohi azim hisoblanadi. Bunday gunohlarni sodir qilayotganlarga Yaratganning jazosi holi-hayotda ham, oxiratda muqarrar. Din manfaatlari yo'lida harakat qilyapmiz, deb da'vo qilayotgan ayrim odamlar o'z dinlarining ta'llimotini to'la tushunib yetmaydi. Dindan hech qanday dunyoviy maqsad uchun foydalanish mumkin emasligini anglamaydi. Uni hayotga noto'g'ri tatbiq etadi. Oxir-oqibat ayanchli va sitamkor vaziyatlar yuzaga keladi. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, har qanday shakldagi zulm va zo'ravonlik Islom aqidasiga mutlaqo ziddir. Binobarin, ilohiy ko'rsatmalarga qarshi borib, begunoh odamlarning hayotdan ko'z yumishiga sabab bo'layotgan shaxslar dunyo hayotida maqsadlarimizga erishdik deb o'yashlari ayanchli ahvol va noto'g'ri yo'ldir. Dindiyonatning oliv axloqiy amr-farmonlarini anglab yetgan va zimmasiga oлган har bir shahs insonparvarlik va ezgulikni do'st tutishi tabiiy.³ Chin muslimon dunyoni obod va ko'rkan etuvchi, uning gullab-yashnashi va farovonligi, osoyishtaligi borasida xolis hizmat qiluvchi kishidir. Aslida, muslimonning maqsadi umuminsoniy manfaatlar yo'lida ezgu niyat, mehrmuruvvat, samimiylilik, sahovatpeshalik, bag'rikenglikdek bilan xizmat qilishdir. imonli kishilarning qalbida rahm-shafqat, mehribonlik, adolatparvarlik, sofkillik, kechirimlilik, kamtarlik, beg'arazlik, fidoiylik, sabr-toqat kabi ezgu tuyg'ular mujassam bo'ladi.⁴ Zero, Alloh taolo Qur'oni karimda: "Ota-onangizga hamda qarindosh-urug', yetim va miskinlarga, qarindosh qo'shni va begona qo'shniga, yoningizdagи hamrohingizga, yo'lovchi va musofirga va qo'llaringizdagи qullaringizga yaxshilik qilingiz! Albatta, Alloh mutakabbir va maqtanchoq kimsalarni sevmaydi", (Niso, 36) degan. Aynan shu oyatlar mazmunidan Alloh taolo dunyoda ezgulikni do'st tutishini anglaymiz. Insonparvar, e'tiqodli odam jamiyatga nisbatan ko'ngli ochiq, muomala madaniyati mo'tadil, xayrli ishlari ziyoda, ezgu amallarga chanqoq bo'ladi. Bu qanday yaxshi, qanday go'zal! Islom o'z mohiyatiga ko'ra tinchlik dinidir. U insonlarni tinchlik va barqarorlikni ta'minlash yo'lida bor kuch-g'ayratini safrlashga, turli fitna va o'zaro

³ "Diniy-ma'rifiy suhbatlar" kitobidan

⁴ "Diniy-ma'rifiy suhbatlar" kitobidan



adovatga barham berishga chaqiradi. Zero, tinchlikparvarlik islom dinining asosini tashkil etadi. Ammo bugungi kunda dinni niqob qilib, uning nomidan ish olib borishga intilayotgan ekstremistik va terrorchi oqimlarning chirkin faoliyati muqaddas islom dini va tinchliksevar musulmonlar haqida noto‘g‘ri tasavvurlarning shakllanishiga sabab bo‘lmoqda. Xo‘sh, buzg‘unchi oqimlarning jihod borasidagi qarashlari qay darajada asosli, jihodning mohiyati nimada?

Jihod so‘zi arabcha «jahada» fe‘lidan olingani, «g‘ayrat qilmoq», «harakat qilmoq», «intilmoq», «zo‘r bermoq», «bor kuchini sarflamoq», «kurashmoq», «mehnat qilmoq» kabi ma’nolarni anglatishi bugungi kunda ko‘pchilikka ma’lum. Diniy istilohga ko‘ra, jihodning nafs, shayton va yov bilan kurashishdek turlarining mavjudligi, ularning mazmun-mohiyati haqida mo‘tabar manbalarda yetarlicha tushuntirishlar berilgan. Dastlab «jihod» mazmunida islomni himoya qilish va yoyish uchun qilingan sa’y-harakat, g‘ayrat qilish ma’nosи tushunilgan. Shu bois Makka davrida Payg‘ambar (alayhis-salom) va sahobiylar Alloh taoloning: «(Ey Muhammad), Rabbingizning yo‘liga (diniga) hikmat va chiroyli nasihat bilan da’vat qiling! Ular bilan eng go‘zal uslubda munozara qiling!», (Nahl, 125) degan ko‘rsatmasi asosida faoliyat olib borganlar. Keyinchalik, ya’ni Muhammad (alayhis-salom) Makkadan Madinaga ko‘chib o‘tganlaridan so‘ng islom dini va musulmonlar jamiyatini tashqi dushmanlardan mudofaa qilish maqsadidagina harbiy mazmundagi jihodga ruxsat berilgan. Jumladan, «Haj» surasining 39-oyatida: «(Mushriklar tomonidan) hujumga uchrayotgan (musulmon)larga, mazlum bo‘lganlari sababli (jang qilishga) izn berildi. Albatta, Alloh ularga yordam berishga qodirdir», deyiladi. Bundan ko‘rinadiki, jangu jadal ma’nosidagi jihodga mudofaa, muqarrar dushman hamlasini daf etish maqsadida ruxsat berilmoqda.

Taassufki, hozirda jihod deyilganda uning urush ma’nosidan boshqalarini inkor etish, boz ustiga terrorchilik bilan bog‘liq jinoyatlarni ham Alloh yo‘lidagi jihod, deb e’lon qilish holatlari ortib bormoqda. Ayniqsa, ekstremistik va terrorchi oqimlarning mutaassiblik bilan yo‘g‘irilgan g‘arazli maqsadlari yo‘lidagi bosqinchilik urushini «jihod» deb e’lon qilishi va bu yo‘lda o‘zini portlatgan va boshqa begunoh insonlarning o‘limiga sababchi bo‘lgan kimsalarni «shahid» deb atayotganlari dinimiz ta’limotlariga mutlaqo ziddir. Vaholanki, islom dinida jon ne’matiga Allohnинг eng buyuk va qadrli ne’matlaridan biri, deb qaraladi. Bu ne’matning qadriga yetmaganlarga ulkan azoblar borligi haqida Qur’oni karim va hadislarda ko‘plab ko‘rsatmalar kelgan. Jumladan, Imom Buxoriydan rivoyat qilingan hadisi qudsiyda shunday deyiladi: Alloh taolo marhamat qilurki: "Bandam



o‘zini-o‘zi o‘ldirib, Mening unga bergen umrimga shukr qilmay, shoshildi. Shuning uchun unga jannatni abadiy harom qildim».⁵

Shuningdek, Imom Buxoriy va Imom Muslimdan rivoyat qilingan yana bir hadisda ham shunga oid masala bayon etilgan. Unda aytishicha, «Kimki o‘zini tog‘ tepasidan tashlab o‘ldirsa, o‘lgandan keyin ham jahannamda shu xil azobga giriftor bo‘ladi. O‘zini suvga tashlab yoki osib yoki kuydirib o‘ldirgan kishilarning hukmi ham uning hukmi bilan barobardir».⁶

Yuqoridagi hadislар faqat o‘zini o‘ldirgan kimsа haqida bo‘lsa, o‘zi bilan birga begunoh insonlar o‘limiga sabab bo‘layotgan shaxslarning gunohi undanda og‘irroq bo‘lishini tasavvur qilish qiyin emas. Bu haqida Qur’oni karimda shunday deyiladi: «Kимда-ким qасddan bir mo‘minni o‘ldirsa, uning jazosi jahannamda abadiy qolishdir. Yana unga Alloh g‘azab qilgay, la’natlagay va unga ulkan azobni tayyorlab qо‘ygay», (Niso, 93). Jihod harakatini terror yo‘li orqali amalga oshirayotgan kimsalar o‘z qilmishlarini muqaddas islom uchun kurash, musulmonlarni birlashtirish yoki islom xalifaligini qurishga qaratilgan amallar, deya o‘zlarini oqlamoqchi bo‘ladilar. Agar jihod, ular aytganidek, islom davlatini qurish uchun yoki insonlarni dinga kirishga majburlash uchun joriy etilganida edi, Payg‘ambar (alayhis-salom)ning o‘zlarini bu borada namuna ko‘rsatgan bo‘lar edilar. Biroq Payg‘ambar (alayhis-salom) bunday yo‘l tutmadilar. Aksincha, yangi paydo bo‘lgan musulmon jamiyatini himoya qilish uchun hamda yurtga bostirib kirishi muqarrar bo‘lgan dushmanagagina urush e’lon qilganlar. Shu bilan birga Muhammad (alayhis-salom) Makkadan Madinaga kelganlaridan so‘ng qilgan dastlabki ishlaridan biri musulmonlar jamoasi va hududdagi turli din vakillari o‘rtasida o‘zaro tinch-totuv yashashni ta’minlashga qaratilgan shartnoma tuzish bo‘lgan. 622 yilda tuzilgan bu shartnoma «Madina sahifasi» nomi bilan mashhur bo‘lib, unda yahudiylar, nasroniylar va musulmonlar o‘zaro hurmat asosida yashash, ularning o‘z diniy e’tiqodini amalga oshirishlariga to‘sinqlik qilmaslik, kabi muhim masalalar o‘rin olgan edi.⁷ Islom dini hamma davr va har qanday vaziyatda tinch-totuvlikning barqaror bo‘lishidan manfaatdor bo‘lganini uning tarixi ham namoyon etadi. Tinchlik va osoyishtalik – oliy ne’mat!

Ma’lumki, tinchlik va xotirjamlik Alloh taoloning eng katta ne’matlaridan biridir. Shuning uchun ham Payg‘ambarimiz alayhissalom hadislарining birida tinchlik-

⁵ Сахихи Бухорий, 3304-хадис.

⁷ Хуршид Саматов, [02.12.2023 9:27]



xotirjamlik eng ulug‘ ne’mat ekanini ta’kidlab, shunday deganlar: “Ikki ne’mat borki, ko‘pchilik insonlar uning qadriga yetmaydilar. U – xotirjamlik va sihat-salomatlilik” (Imom Buxoriy rivoyati). Hech shubhasiz, yurtimizda turli sohalarda erishilayotgan barcha yutuqlarimizning zamirida jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik hisoblanadi. Tarixiy haqiqat shundan iboratki, ijtimoiy taraqqiyotning barcha davrlarida davlat va jamiyatning rivojlanishi barqarorlik va tinch-osoyishta hayot kechirishga uzviy bog‘liq bo‘lgan.⁸

Ma’lumki, islom dinida tinchlik Alloh taolo tomonidan butun insoniyatga in’om etilgan ulug‘ ne’mat sifatida qadrlanadi. Ulamolar Qur’oni karimning 50 dan ziyod surasidagi oyatlar mo‘minlik, tinchlik va bag‘rikenglik mavzulariga bag‘ishlanganini e’tirof etadilar. Jumladan, Qur’oni karimda bayon qilinadiki: “Ey imon keltirganlar! Yoppasiga itoatga kirishingiz va shaytonning izidan ergashmangiz. Albatta, u sizlarga aniq dushmandir” (Baqara surasi, 208-oyat).

Tinchlikning ilohiy ne’mat ekani Nabiy alayhissalomning quyidagi hadislarida qayd etilgan: “Allohdan afv va tinchlik-omonlikni so‘ranglar. Chunki biror kishiga imondan keyin tinchlik-omonlikdan afzalroq ne’mat berilgani yo‘q” (“Sunani Termiziy”, 3558-hadis).

O‘zbekiston azaldan turli millatga mansub, turli dinlarga e’tiqod qiluvchi xalqlar tinch-totuv yashagan o‘lka bo‘lib kelgani tarixiy haqiqatdir. Ajdodlarimiz turli millat va din vakillariga doimo hurmat bilan munosabatda bo‘lgani, Vatan taraqqiyoti yo‘lida yelkadosh bo‘lib mehnat qilgani tarixiy manbalarda ko‘p qayd etilgan. Bugungi kunda 16 xil konfessiyaga amal qiluvchi 130 dan ziyod millat vakillari yagona ahil oila bo‘lib, tinchlik-xotirjamlikda yashab, yurtimiz mustaqilligi va xalqimiz farovonligi yo‘lida birgalikda faoliyat olib bormoqdalar.

Darhaqiqat, Payg‘abrimiz alayhissalomning “Tinchlik va xotirjamlik ikki ulug‘ ne’matdurki, bundan ko‘p odamlar mahrumdirlar” (Imom Buxoriy, 6412-hadis) degan hadislarini eslagan holda, bugungi kunda yurtimizdagи tinch-osoyishta hayot qator mamlakatlarning xalqlari uchun orzu bo‘lib qolayotgani guvohi bo‘lmoqdamiz.

Ushbu holat dunyodagi davlatlarning katta yoki kichikligi, dini va millatidan qat’i nazar, tinchlik va barqarorlik naqadar ulug‘ ne’mat ekanini yana bir bor isbotlab bermoqda. Shu o‘rinda Imom Termiziy rivoyat qilgan hadisni eslash o‘rinlidir: “Kim oilasi tinch, tanasi salomat va huzurida bir kunlik taomi bor holatda tong ottirsa, unga dunyo to‘lig‘icha berilibdi” (“Sunani Termiziy”, 2346-hadis). Ta’kidlash joizki, ijtimoiy barqarorlik jamiyat hayotining osoyishtaligi bilan

⁸ Сахихи Муслим, 187-хадис.



tavsiflanadi. Barqarorlikka tinch-totuvlik va uni mustahkamlash uchun shart-sharoitlar yaratish, turli ijtimoiy qatlamga mansub fuqarolar va siyosiy partiyalar o‘rtasidagi hamjihatlikni, davlat, jamoat va diniy tashkilotlar, fuqarolar o‘rtasidagi ijtimoiy kelishuv va sherikchilik bardavomligini ta’minlash orqali erishiladi.

Aksincha, xalq orasida buzg‘unchilik g‘oyalarini tarqatish orqali beqarorlik keltirib chiqarish esa tinchlik va xotirjamlikni izdan chiqaradi. Islom ta’limotida aholi osuda hayot kechirib turgan jamiyatda halovat va tinchlikka raxna soladigan har qanday fitna harakatlari odamlarning qonini to‘kishdan ham og‘ir gunoh sanaladi: “Sizlardan faqat zolimlargagina xos bo‘limgan (balki hammalar ringizga ommaviy bo‘ladigan) fitna (azob)dan saqlaningiz va bilib qo‘yingizki, Alloh jazosi qattiq (Zot)dir” (Anfol surasi, 25-oyat).

Islom ulamolari Qur’oni karimda tinchlikka, odamlarning osoyishtaligi va xavfsizligiga raxna soluvchi amallarni qilmaslikni buyurilganini ta’kidlaydilar: “...Alloh esa, fasodni (buzg‘unchilikni) yoqtirmaydi” (Baqara surasi, 205-oyat). Mazkur suraning 60-oyatida: “...Allohnинг rizqidan yeb- ichingiz, Yer yuzida buzg‘unchilik qilmangiz!..” deb marhamat qilingan.

Shuningdek, islom ta’limoti odamlarni millati, dini, jinsi yoki qarashlaridan qat’i nazar, huquq va erkinliklarini himoya qiladi hamda ularga zulm qilishdan qaytaradi. Qur’oni karimda: “...biror qavm (kishilari)ni yoqtirmaslik sizlarni ularga nisbatan adolatsizlik qilishga undamasin!..” (Moida surasi, 8-oyat) deyilgan.

Tinchlikni saqlash hushyorlik va ogohlikni talab qiladi. Bugungi tahlikali zamon tinchlikni ta’minlash faqat davlatning vakolatli idoralari vazifasi degan noto‘g‘ri tushunchalardan voz kechish, Vatan taqdiri uchun astoydil qayg‘urib yashashni taqozo etayotganiga barchamiz guvohmiz.⁹

Alovida qayd etish lozimki, tinchlikning shukronasi amaliy bo‘lishi lozim. Ya’ni insonlar nafaqat mavjud tinchlikning qadriga yetib, shukrini ado etishi, balki unga noshukrlik qilib putur yetkazishdan ham saqlanishi, kelib chiqishi mumkin bo‘lgan notinchlikning oldini olishda ham faol ishtirok etishlari lozim.

Ayniqsa, axborot manbalari, xususan, ijtimoiy tarmoqlar orqali tariximizni, milliy qadriyatlarimiz va Islom dini mohiyatini soxtalashtirishga, ma’naviyat va ma’rifatdan yiroqlashtirishga qaratilgan g‘arazli urinishlarga qat’iy qarshi turishimiz kerak. Mazkur yo‘nalishda jamiyatning ziyoli qatlamlari, olim va ulamolar oldingi safda bo‘lishlari shart. Vatanparvarlik ota-bobolardan meros qolgan zamanni sevish, xalq urf-odatlarini, qadriyatlarini asrash va rivojlantirish, o‘z ona Vatanini

⁹ Muxlis.uz/oz/page/tinchlik-oliy-nemat



dushmanlardan, yot va begona g‘oyalardan himoya qilish, uning ozodligi va mustaqilligi uchun jonini ham ayamaslikni nazarda tutadi. Ulamolarimiz vatanparvarlik oddiy shior yoki his-tuyg‘u emasligi, balki uni quyidagi xayrli amal va ibratli ishlarda ifoda etish lozim ekanini ta’kidlaydilar:

Vatan haqqiga bor yaxshiliklarni tilab duo qilish;
jamiyatda ahillikni kuchaytirish yo‘lida harakat qilish (silai rahm, qo‘snilarga yaxshilik, o‘zaro yordam, bir-birlariga yaxshilikni sog‘inish, salbiy axloq va ijtimoiy illatlardan saqlanish va h.k.);

Vatan salohiyatini oshirish va uni muhofazasi uchun jonkuyarlik qilish (Vatan mulkini avaylab- asrash, uning yuksalishi uchun halol mehnat qilish, o‘zini bag‘ishlash, bu yo‘lda tamani yaqinlashtirmaslik va h.k.);

Vatan erki, hududi yoki obro‘siga qarshi g‘oyaviy yoki harbiy hujumga qarshi mudofaada turish.¹⁰

Ta’kidlash joizki, Vatan oiladan boshlanadi. Oilada tinchlik bo‘lsa, mahalla, qishloq, shahar, viloyat va nihoyat mamlakatda osoyishtalik bo‘ladi, yurt ravnaq topadi. Masalaning e’tiborli jihatlaridan biri shuki, tinchlikni ulug‘ ne’mat deya e’tirof etgan dinimizda bu yo‘lda nafaqat amal bilan, balki so‘z bilan ham zarar keltirishdan qaytarilgan. Shu nuqtayi nazardan fuqarolarimiz yurtimizda tinchlik-xotirjamlikni avaylab-asrash yo‘lida davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlarni nafaqat to‘g‘ri qabul qilishlari, balki e’tiqodan qo‘llab-quvvatlashlari hamda bor imkoniyatlari bilan yordam berishlari lozim. Tahdidlarning oldini olishga qaratilgan aynan mana shunday chora-tadbirlar hisobiga yurtimiz tinch, xalqimiz farovon yashab, dindorlarimiz ibodatlarini xotirjam va emin-erkinlikda ado etmoqdalar. Qayd etilganlardan bugungi tahlikali zamonning o‘zi voqelikka hushyorlik, teran va chuqur mushohada yuritgan holda nazar tashlashni, dunyoda kuchayib borayotgan xatarlarni to‘g‘ri baholab, ulardan tegishli saboq olib yashashni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan vatandoshlarimiz, ayniqsa, yoshlarimizning ongi va shuurida murakkab va tahlikali dunyo, mintaqada ro‘y berayotgan turli voqeа-hodisalar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar haqida biryoqlama va noxolis tasavvurlar shakllanishiga yo‘l qo‘ymaslik zarur sanaladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, dinimizning tinchlikka bo‘lgan e’tibori nechog‘liq katta hamda bag‘rikenglik uning negizidir. Inson o‘zidagi ne’matning qadrini uning ustida mulohaza yuritish, shu ne’matdan o‘zgalar ham bahramand yoki bebahra ekanligini o‘ylab ko‘rish bilan biladi. Bu esa yanada ko‘proq Allohga shukr

¹⁰ Muxlis.uz/oz/page/tinchlik-oliy-nemat



qilishga undaydi. Ne'matning bardavom bo'lishi – uning shukri ado etilishiga bog'liqdir. Ne'matning salmog'iga qarab shukr ham har xil bo'ladi. Ba'zi ne'matlarning shukri tilda "alhamdulillah" deyish bilan ado bo'lsa, boshqa xil ne'matlar ham borki, ularning shukrini amaliy tarzdagina ado etish mumkin. Tinchlik ana shunday amaliy shukr talab qiladigan ne'matdir. Bu ne'matning shukrini ado etish barchaning zimmasidagi farzdir. Keksalar tinchlikning mustahkamligini so'rab duo qilishlari, o'rta yoshlilar o'zlarining halol mehnatlari, yoshlar esa uni asrash va qadriga yetish borasida astoydil ilm olishga harakat qilmoqlıklari bilan bu ne'matning shukrini ado etgan bo'ladilar.¹¹

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. rava.uz/stoty/Islom_Din_Tinchlik_Dini
2. Muxlis.uz/oz/page/tinchlik-oliy-nemat
3. "Diniy-ma'rifiy suhbatlar" kitobidan
4. motouridiy.uz
5. Хуршид Саматов, [02.12.2023 9:27]
6. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – С. 175-179.
7. Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.
8. Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.
9. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.
10. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction." (2021).



¹¹ Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.